

## Milliy muhorabadan bir lavha

To'lgan oy kechagina butun bo'lib bu kun xarobaga aylangan katta bir madrasa orqasidan nima bor ekan deb qo'rqib mo'ralagandek qarab, ko'chada cho'zilib-cho'zilib yotgan o'liklar ustiga mayusona nurin sochmoqda edi.

Mo'minjon bir muncha vaqt oyning ko'tarilib, butun ko'chani ravshan qilmog'in kutib turgani bir zamonda o'liklar orasinda bir niche qora narsalar harakat etib yurganin ko'rdi-da, unlarni dushmanlar tarafidan o'liklarni yonida bor narsalarin olmoq qasdila yurgan odam gumon etib, qo'rqib o'zin bir o'lik orqasiga olib, bir qancha vaqt yotib oldi. Bir vaqt boshin ko'tarib qarasa, hamon bir joyda qo'zg'olmay harakat etur. Shul vaqt bir tarafdin yana bir narsa emaklab kelayotgandek bo'lib, kamoli qo'rquvidan ko'zi tinib, ko'ringan narsalarni nima ekanin bila olmasdan qo'rquv va hijolatlar ila mufradot aytdi.

Har taraf o'liklar haybati, gumbur-gumbur to'plar, potr-putr pulimot, miltiqlar ovozi, ham tilinda kalimayi shahodat talqin etib, bo'g'ilgan ovozlari ila: Oh.. muqaddas Vatanimiz, xarob bo'ldi. Oh.. din, millat... uh, jonim... voy bolam, deb har taraf ingrab to'lg'ongan yaradorlarning dod-faryodiga butun atrofni dahshat o'rab, tamomi bo'shshagan edi. Birdan-bir ovozga cho'chib, tamom badani issiq-sovuq bo'lib jimirlab qo'rquvdan o'zidan ketayozdi. Bazo'r to'xtonib qaradi-ki, ko'ziga odam bo'lib ko'ringan narsalar itlar, kelgan ovozlari din millatin himoya qiluv uchun shahid bo'lganlarning, badbaxt o'liklarini yeb quturgan itlarning taloshib qilgan g'avg'olari ekan.

Mo'minjon qo'liga bir tosh olib, itlarni quvlab o'liklarni qidirmoqqa boshladi. Ko'rdi-ki, birin boshidan, birin ko'krigidan, birin biqinidan o'q yeb o'lib yotibdir. Ba'zisi qo'lidan, oyog'idan, yon boshidan yorador bo'lib, ularning yarasin bog'lab xolidan xabar oluvchi yo'q. To'lg'onib, oh fig'on qilib yotibdirlar. Ular orasidan o'tib nariroqqa borsa, bir niche odam to'pning o'qidan titilib, tanib bo'lmaslik holda yotibdir.

Oh, qanday fojia!

Mo'minjon bularni ko'rib, yana atrofin qo'rquv dahshat o'rab yoniga qarasa, bir yigit qo'lida pichoq dushmanin mahkam sochidan ushlab pichog'in bo'g'ziga sanchganicha peshonasidan ham ko'krigidan o'q yeb barobar yiqilib o'lib yotibdir.

Shul yerda bu qadar inson bolalarini zolimona harakatlarini o'ylab, butun atrofin qo'rquv dahshat o'ragan holda hayol dunyosiga g'arq bo'lib qarab qoldi.

Har taraf kuygan, yiqilgan imoratlar. Har joy har joyda kuygandan qolgan rasta timlarining ustunlari ila butun shoxlari kuygan daraxtlarning tanalari ko'rinur edi.

Ba'zi joyda yarmisi kuyib, ba'zi shoxlari omon qolgan daraxtlar ustida yotgan qarg'alar bu dahshatdan qo'rqibmi? Yoki yotgan harbzada<sup>1</sup> milliy shahidlara motam tutibmi? Bizdan hayitlik (qag'-qag') degan ovozlari cho'chib, o'zining bul yerga nimaga kelganligin yodidan chiqarib, bir oz o'ylab, ko'nglida bir xavotir bor ekanligin sezdi. Ul xavotir bir narsa qidirib, yurganligin yodiga solib, yana ul ko'ngliga qadar kelturgan narsasin qidirmoqqa davom etdi.

Birdan nariroqdan bir ovoz eshitildi. Ovoz qulog'iga oshno tuyulub, yuragi dukur-dukur tepa boshlab yaqinroq bordi. Oh! Bu falokatxada Mo'minjon nimani ko'rsun? Otasi!

Otasi oyog'idan, ko'krigidan ham yarador bo'lib ingrab yotur. Birdan "oh, otajon, sizga nima bo'ldi" deb ustiga o'zin tashladi. Otasi o'g'lin ovozin eshitib, holsiz bir ovoz ila "o'g'lim... o'g'lim... suv ber... suvvv..." dedi.

Mo'minjon otasining o'lum holatida bu yerga qo'yub, u yon, bu yon yugurub, o'luklarga qoqilib, surinib, goh yiqilib, turib suv qidirmoqda edi. Birdan ko'rdi-ki to'p o'qi ila vayron bo'lgan do'kon oldida yarmisi yerga ko'milgan xum turibdir. Xum oldida bir sirli xum yotibdir. Qarasa xum to'la suv, xursand bo'lib darhol sir xumni suvga to'ldirib olib otasi tarafga qarab yugurdi. Kelib qarasa, otasi juda holdan qolibdir. Otasin boshin ko'tarib, "otajon, mana suv" dedi. Otasi sir xumni ikki qo'li birla mahkam tutib, ko'zlarin katta-katta ochib suvdan simirib ichib, "Alhamdulillah" dedi-da, o'zin o'g'lin quchog'iga tashladi. Bir marotaba ko'zin olakula qilib, atrofga qarab, uzoq nafas tortib "oh... xarob... bo'ldi... Xo'qand..." dedi-da jonin haqqa taslim qildi.

**G'.Z. (G'ulom Zafariy)**

**"Ishchilar dunyosi" jurnali. 5-son. 72-74-betlar.**

---

<sup>1</sup> Xarbzada – urush urgan, yldirgan.